



JADIDLARNING DUNYOQARASHLARI VA TA'LIM SOHASIDAGI O'RNI

Abdufattohova Umidaxon Bahodirjon qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali

Tibbiyot fakulteti, davolash yo'nalishi

305-guruh talabasi

+998912911116

olimovaumida398@gmail.com

Annotatsiya: Rivojlanib borayotgan jamiyatda avlodlarning ma'naviy dunyoqarashni sog'lom shakllantirish, diniy-falsafiy jihatlarini o'rganish bu – ta'limning eng asosiy vazifasidir. Bu sohada jadidchilarning O'rta Osiyo xalqlari taraqqiyotida juda muhim rol o'ynaydi. O'zbek ajdodlari tarixiga qaralsa, jadidchilik harakati siyosiy ma'rifatchilikdan jadid taraqqiyparvarlar firqasi darajasiga ko'tarila oldi. Turkistonda M.Bexbudiy, Cho'lpon va bir qator vatanparvar adiblarning barcha jabxalardagi ilg'or g'oyalari haqida so'z boradi.

Annotation: In a developing society, healthy formation of the spiritual worldview of generations, studying religious-philosophical aspects is the main task of education. In this field, modernists play a very important role in the development of the peoples of Central Asia. If you look at the history of Uzbek ancestors, the Jadidism movement was able to rise from political enlightenment to the level of the sect of Jadid progressives. In Turkestan, the progressive ideas of M. Bekhbudi, Cholpon and a number of patriotic writers on all fronts are discussed.

Kalit so'zlar: Bexbudiy, Jadidchilik, maorif, ma'rifatparvarlik, Turkiston, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xorazm, Cho'lpon, Hamza, Ajziy, Fitrat, Usmonxo'ja.



Key words: Bekhbudi, modernism, education, enlightenment, Turkestan, Samarkand, Bukhara, Tashkent, Khorezm, Cholpon, Hamza, Ajzi, Fitrat, Osmankhoja.

Kirish: Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoil Gaspirali rahbarligida qrim tatarlari orasida vujudga kelgan. Jadidchilik harakati namoyandalari o'zlarini avvaliga taraqqiyparvarlar, keyinchalik esa jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadid so'zi (arabcha "yangi") degan ma'noni anglatib, harakatining bosh g'oyasi xalqni ma'rifatli qilish orqali, mustamlaka zulmidan ozod qilishga qaratilgan ma'rifatparvarlik harakatidir. Jadidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar panturkizm g'oyalarini targ'ib qilishgan.[1]

Yangilik tarafdorlarini Abdulla Avloniy so'zi bilan aytganda, "gazeta o'qiguvchilarni " mullalar "jadidchi" nomi bilan atar edilar [2]. Bu harakatning yorqin namoyondalari Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir, Shukuriy (Shakuriy), Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Majid Qori Qodiriy, Ubaydullaxo'ja, Asadullaxo'jayev (Ubaydulla Xo'jayev), Toshpo'latbek Norbo'tabekov (Toshkent), Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Abdulvohid Burhonov, Sadriddin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho'lpon, Is'hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda (Farg'ona vodiysi), Boltihoji Sultonov, Rahmonberdi, Madazimov, Fozilbek Qosimbekov (O'sh uyezdi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Boboovun Salimov (Xorazm) va boshqa bir qator ziyolilar hisoblanadi. Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag'lubiyatga uchrash davrlari



bo'lib, ularni shartli ravishda to'rtga bo'lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895–1905; 1906–1916; 1917–1920; 1921–1929-yillarni o'z ichiga oladi. Jadidlar maktabni tarbiya maskani deb hisoblashgan. Tarbiya inson dunyoga kelgan kunidan to umrining oxirigacha davom etadiga uzluksiz jarayondir. Jadidlar tom ma'noda ma'naviy, ma'rifiy tarbiya g'oyasining targ'ibotchilaridir. Milliy istiqlol g'oyasini o'quvchilar ongiga singdirish, ma'rifatparvarlikka undash, fikr va dunyo qarashlarini yanada kengaytirish va yoshlarimiz orasida xalqparvar diniy-dunyoviy bilimlarga ega yoshlarimizni sonini ko'paytirish mavzuning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Hozirgi kunda yoshlarimiz orasida bilim olishga, teran fikr yuritishga, xalq manfaatlari yo'lida ilmiy salohiyatga erishishga bilimdon yoshlarimizning sustkashlikka yo'l qo'yayotganligi, oltinga teng vaqtlarini behuda o'tkazayotganligi ko'p kuzatilmoqda. Zero, ilm asl tugab bitmas xazinadur. Maqsadimiz- O'zbekiston tarixida ma'rifatparvarlikka xalqning dunyoqarashlarini ijobiy tomonga o'zgartirishga o'z umrini bag'ishlagan jadidchilarimiz hayoti va ularning faoliyatini bugungi kun yoshlari uchun asl namuna tarzida yanada yoritib berishdir. Birgina Andijon viloyati misolida oladigon bo'lsak, yetuk mutafakkirlar, komillikka erishgan fidoiy jadidchilarimiz hali hamon tarix zarvaraqlarida o'chmas satrlar bilan bitilgan.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari: Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish. Siyosiy ma'noda ma'rifatparvarlik xalqni ozodlikka olib chiqish va milliy davlatchilik g'oyalarini ilgari surish bilan ifodalanadi.

Mustaqillik yillarida Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Avloniyning 2 jildli, Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Sidqiy Xondayliqiy, Ibrat, Ajziy, So'fizodaning 1 jildli, shuningdek, Fayzulla Xo'jayev, Munavvarqori, Polvonniyoz hoji Yusupovning



asarlari chop qilindi. Jadidlarning 20 ta mashhur vakili kiritilgan „Unutilmas siymolar. Jadidchilik harakatining namoyandalari“ (Toshkent, 1999) albom-kitobi nashrdan chiqdi. Ularning faoliyati darslik va qo‘llanmalarga kiritildi. [3]

Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidlari otasi, jadidchilikning yana bir yorqin vakilidir. Jadidshunos Begali Qosimovning ta’kidlashicha: “Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr bo’sag’asidagi Turkiston orzu-armonlaridan biri sifatida maydonga keldi. U o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarda faol qatnashgan yirik namoyondasi, yangi zamon o‘zbek madaniyatining asoschisi edi. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi. Mustaqil jumhuriyat g‘oyasining yalovbardori, yangi maktab g‘oyasining nashriyotchisi va amalyotchisi, o‘zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist edi.” Behbudiy yangicha ta’lim tarbiyani afzalliklarini isbotlashda ko‘proq o‘zi erishgan yutuqlarga, o‘zi amaliyotga tatbiq qilgan yangi tartiblarga tayanadi. Behbudiy axloq va tarbiyaning asosi- maktab, barcha ilmlarning boshi maktab, saodatning, fozil insonning ma’naviy chashmasi-maktab degan aqidaga qat’iy amal qilgan. 1908-yilda “Bexbudiya” kutubxonasi nomi bilan mashxur bo‘lgan qiroatxona tashkil etilgan [4]. Mahmudxo‘ja Behbudiy uchun milliy g‘oya-millatni taraqqiyotga olib chiqish g‘oyasi edi. Bugunda ma’rifarparvar jadidlarning bebaho asarlari, ilmiy, nazmiy va nasriy meroslari, ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g‘oyalari o‘zbek xalqining ma’naviy ma’rifatini, milliy tarbiya, milliy qadriyatlar va milliy ongini yuksaltirish yo‘lida xizmat qilib, yoshlar qalbida vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini tarbiyalab kelmoqda. Mustaqillik tufayli ma’rifatpar jadidlarning nomlari tiklanib, tavvallud kunlari tantanali nishonlandi, ularning pok nomi oqlandi, asarlari qayta-qayta chop etildi.

Xulosa: Xulosa o‘rnida Maxmudxo‘ja Bexbudiyning vasiyatini eslatib o‘tish o‘rinli deb bilamiz. Sizlarga vasiyat qilaman: maorif yo‘lida ishlay turg‘on muallimlarning boshini silangizlar! Maorifga yordam etingiz! O‘rtadan nifoqni ko‘taringiz! Turkiston bolalarini ilmsiz qo‘ymangizlar! Hammaga ozodlik yo‘lini ko‘rsatingizlar! Bizdek maorif qurbonlarini yo‘qlangizlar! Ozodlikni tezlik ila



yuzaga chiqaringizlar! Mumkin qadar ko‘proq yangi maktablar ochish, shuningdek maorif va xalq saodatini ta‘minlash sohasida tinmay ishlash bizga eng yaxshi haykal bo‘ladi!”

Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, ta‘lim soxasida tinmay mexnat qilayotgan ustozlarimizning ilm uchun qilayotgan mexnatlarini qadrlaylik, ularning xurmatini oshirib, yonida yelkadosh bo‘lib, o‘z bilim-salohiyatlarimizni ko‘rsataylik. O‘zbek xalqiga ma‘rifat tarqatish uchun jonini tikkan fidoiy jadidchilarimizni biz uchun qoldirgan adabiy meroslarini doimo yodda saqlab, beqiyos meroslarini asrab avaylab, ulardan oqilona foydalana bilaylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jadidlarni O‘zbekcha Vikipediya taqiqlamagan, Ozodlik radiosi, 1-may, 2014
2. Avloniy A. “Tarjimai xol. Tanlangan asarlar. 2-jild. T,” Ma’naviyat”, 1998-yil 288-bet.
3. Jadidlarni O‘zbekcha Vikipediya taqiqlamagan, Ozodlik radiosi, 1-may, 2014
4. Bexbudiy B. “Behbudiy kutubxonasi”, “oina jurnali, 1914-yil26-aprel, №27. Tanlangan asarlar. Jild-II,-T,: Akademnashr, -2018-yil 14- bet